

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI  
DARSLIKALARIDA BERILGAN TINISH BELGILARINI O'RGATISHGA  
DOIR MASHQLAR TAHLILI**

**Usmonova Yulduz**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida berilgan tinish belgilarini o'rgatishga doir mashqlar tahlili haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** tinish belgilari, punktuatsiya, nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, vergul, tire, dialog, matn, malaka talablari.

**Аннотация:** В данной статье проводится анализ пунктуационных упражнений, приведенных в учебниках для начальной школы

**Ключевые слова:** знаки препинания, пунктуация, точка, вопросительный знак, восклицательный знак, запятая, дефис, диалог, текст, квалификационные требования.

**Annotation:** This article deals with the analysis of punctuation exercises given in elementary school textbooks.

**Keywords:** punctuation marks, punctuation, full stop, question mark, exclamation mark, comma, hyphen, dialogue, text, qualification requirements.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda punktuatsiya alohida ahamiyatga ega. Tinish belgilari haqidagi ma'lumotlar hamda ularning ishlatalish o'rirlari to'g'risida kichik yoshdagi o'quvchilarda tushuncha hosil qilish bosqichma-bosqich izchillikda olib boriladi. O'quvchilarga har bir tinish belgisini o'rgatishda, avvalo, uning nutqdagi ahamiyatini tushuntira bilish kerak. Yozma nutqda tinish belgilarini o'z o'rniqa qo'yish va og'zaki nutqda ham shu tinish belgilariga rioya qilgan holda o'qiy olish o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biridir.

1-sinf o'quvchilari savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq va undov belgilari bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar „Alifbe“ o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar. O'qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to'xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasavishini tushuntiradi. Bolalar, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, 3—5 gapli kichik matnni gaplarga ajratadilar va ular o'rtasidagi to'xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga

ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo'yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi.[1]

1-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan tinish belgilarini o'rgatishga doir mashqlarga e'tibor qaratadigan bo'sak, ularning aksariyati dialogik ko'rinishda berilgan matnlar ekanligiga guvoh bo'lamic. Dialogik matnda ham darak, ham so'roq, ham his-hayajon ishtirok etgan gaplar mavjud bo'lib, ulardan so'ng tegishli tinish belgilari qo'yilgan. Bunday mashqlar orqali o'quvchilar har bir gap o'z mazmuniga mos bo'lgan tinish belgisini talab qilishini tushunib oladilar. Matnlardan so'ng berilgan topshiriqlarda ham buning guvohi bo'lishimiz mumkin. Darslikdagi "Mo'jizaviy hasharot" matnini hamda undan keyin berilgan topshiriqlarni ko'rib chiqsak:

#### MO'JIZAVIY HASHAROT

- Qo'shnilar, tez ortimdan yuringlar.
- Nima bo'ldi?
- Anavi tepalik ortida katta gulzor bor ekan.
- Voy, qanday yaxshi!
- U yerda binafsha, chinnigul, momoqaymoq va yalpizni ko'rdim.
- Bugun chelaklarimiz asalga to'lar ekan-da!
- Ha, albatta!
- Qani, uchdik! [2]

Yuqorida aytganimizdek, ushbu matnda darak, so'roq hamda his-hayajon gaplar ishtirok etgan. Matndan so'ng berilgan topshiriqlar:

1. Dialogdan quyidagi tinish belgilari ishlatalgan gaplarni topib yozing.

! . ? ,

2. Gaplarning ohangiga qarab tinish belgilarini qo'ying. [2]

Matnni o'qish orqali o'quvchilarda tinish belgilariga rioya qilgan holda ifodali o'qish malakasi shakllansa, topshiriqlar orqali yozma nutqda ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllantirib borilar ekan.

1-sinf o'quvchilari egallashlari kerak bo'lgan tinish belgisiga oid malaka talablari quyidagilar:

MO'D.OTO'S.1.YN.3 fikr ifodalashda nuqta, vergul, so'roq hamda undov belgilarini to'g'ri qo'llay oladi;

MO'D.OTO'S.1.YN.4 tinish belgilari hamda imlo qoidalariga amal qilgan holda 15–20 ta so'zdan iborat diktant yoza oladi;

MO'D.OTO'S.1.LK.11 asosiy husnixat, imlo, bo'g'in ko'chirish hamda tinish belgilari qoidalariga amal qilgan holda gaplar hamda kichik matnlar tuzib yoza oladi. [5]

2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida esa dialoglar va matnlar bilan bir qatorda she'rlar orqali ham tinish belgilarini mustahkamlashga oid mashqlar taqdim etilgan. O'quvchilar Anvar Obidjonning "Mahallamiz jarchisi" nomli she'ri bilan tanishadilar:

### **MAHALLAMIZ JARCHISI**

Shoxda shaqillar Hakka:

– Mehmon kelyapti, aka!  
Tez pishiring palovni,  
Burab turib mo'ylovni.  
Yeng shimaring, kelinoyi,  
Damlab qo'ying ko'k choyni.  
Yoying shoyi dasturxon,  
Yoping issiq patirnon.  
Bo'shashma, hoy bolakay,  
Xizmatga sen turgin shay.  
Uzgin behi, nok, anor,  
Bog'da yana nima bor?  
Qarab ko'r-chi, qizaloq,  
Tozami idish-tovoq?  
So'ngra yelib-yugurib,  
Uy-hovlini supurib,  
Yo'lakka suv sepib qo'y,  
Mehmon kelgan uyda – to'y...  
Endi meni kuzating,  
Suyunchini uzating.

### **Anvar Obidjon [3]**

She'rdan so'ng tinish belgilariga oid quyidagicha topshiriq keltirilgan:

"Mahallamiz jarchisi" she'ridan bitta xabar, bitta so'roq hamda bitta buyruq mazmunidagi gapni ko'chiring. Tinish belgilarini to'g'ri qo'ying.

O'quvchilar bu topshiriqni ham mustaqil bajarishadi. Maqsad darak, so'roq va buyruq gaplar va ularda qo'llangan tinish belgilari bilan amaliy jihatdan tanishishdir. O'quvchilar quyidagi tartibda vazifani bajarishlari mumkin:

Shoxda shaqillar Hakka.  
Bog'da yana nima bor?  
Yo'lakka suv sepib qo'y. [6]

Bundan tashqari o'quvchilarga amaliy ishlar bajartirish orqali ham tinish belgilarining ahamiyati tushuntirish mumkin. Darslikning ikkinchi bo'limida o'quvchilar tabriknoma yasashni o'rganadilar. Ushbu darsda o'quvchilar quyidagi qoida bilan tanishadilar:

Tabriknoma matnida tabriklanayotgan kishi ismidan so'ng ko'pincha undov belgisi qo'yiladi. Masalan: Qadrli do'stim Hasan! [3]

2-sinf o'quvchilari egallashlari kerak bo'lgan tinish belgisiga oid malaka talablari quyidagilar:

OTO'S.2.YN.2 fikr ifodalashda nutq ohangi va kontekstga mos nuqta, vergul, so'roq hamda undov belgilarini qo'llay oladi;

OTO'S.2.YN.3 tinish belgilarini hamda imlo qoidalariga amal qilgan holda 30–40 ta so'zdan iborat diktant yoza oladi

OTO'S.2.LK.11 asosiy husnixat, imlo, bo'g'in ko'chirish hamda tinish belgilarini qoidalariga amal qilgan holda ikkinchi sinf darajasiga mos, o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gaplar hamda kichik matnlar tuzib yoza oladi. [6]

3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan tinish belgilarini o'rgatishga doir mashqlarda ham asosan gaplarni tinish belgilariga qarab mazmuniy guruhlarga ajratish, tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o'z o'rniqa qo'yish, tinish belgilarining gapdagi vazifasini muhokama qilish kabi topshiriqlar berilgan.

"Antarktida" haqidagi matn o'tilganidan so'ng quyidagi topshiriq keltirilgan:

Matnni tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

Antarktidaning cheksiz muzliklarida ham hayot qaynaydi. Sohil bo'ylarida ajoyib qushlar pingvinlar yashaydi. Qirg'oq yaqinida kitlar kashalotlar delfinlar tyulenlarning bir necha turi dengiz fili va dengiz qoplonlari suzib yuradi [4]

Ma'lumki, ushbu darsliklardagi qoidalar miqdori kamaytirilgan. Shu sababli ko'proq amaliy ishlar yordamida tinish belgilarini o'quvchilarga o'rgatishga e'tibor qaratish lozim. Aynan qoidani quruq yodlatish emas, balki uning mazmunini singdira bilish kerak. Kreativ yondashgan holda turli xil topishmoqlar yoki boshqa metodlar yordamida o'quvchilarning bilimini mustahkamlab borish darkor. Masalan:

Olmasang yarim nafas,  
Yo'ldan o'tgani qo'ymas.

### [Vergul]

Xuddi o'xshar mirza terakka, .

Yo'lda doim turar tikka.

### [Undov]

Tim qora kichkina xol,  
To‘xtatar yo‘lda darhol.

**[Nuqta]**

Shakli o‘xshar o‘roqqa,  
Doim tutar so‘roqqa.

**[So‘roq]**

3-sinf o‘quvchilari egallashlari kerak bo‘lgan tinish belgisiga oid malaka talablari quyidagilar:

OTO‘S.3.YN.1 fikr ifodalashda nutq ohangi va kontekstga mos nuqta, vergul, so‘roq, undov, qo‘shtirnoq belgilarini qo’llay oladi;

OTO‘S.3.YN.2 tinish belgilari hamda imlo qoidalariga amal qilgan holda 50–60 ta so‘zdan iborat diktant yoza oladi;

OTO‘S.3.LK.8 asosiy husnixat, imlo, bo‘g‘in ko‘chirish hamda tinish belgilari qoidalariga amal qilgan holda uchinchi sinf darajasiga mos, o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gaplar hamda kichik matnlar tuzib, yoza oladi. [7]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuqorida darsliklarning barchasida tinish belgilarini o‘quvchilarga o‘rgatish uchun qulay va samarali bo‘lgan topshiriqlar joylangan, punktuatsiyani o‘quvchilarga o‘rgatish uzlucksiz va tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev. ONA TILI O‘QITISH METODIKASI (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik). Toshkent “NOSIR” nashriyoti -2009.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 3-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
5. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
6. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.